Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317029

2-Sho‘ba

JAMIYAT IQTISODIY HAYOTIDA MOLIYAVIY NAZORAT VA UNI TASHKIL QILISHNING MOHIYATI

Tuychiyev Abdurahmon G‘ofurovich
i.f.f.d., dotsent,
O’ktamxonova Robiyaxon Fahriddinxon qizi
TDIU, Andijon fakulteti, BHA ta’lim yo‘nalishi
71/22 guruhi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada moliyaviy nazorat - moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi muhim nazorati ekanligi, u moliyaviy nazoratning mazmuni va yo‘nalishlarini belgilab berishi to’g’risidagi mavzu yoritilgan. Moliyaviy nazoratning mazmuni va yo‘nalishi jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining o‘zgarishidan kelib chiqqan holda o‘zgarib turishi aytib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *moliyaviy nazorat, evolyutsion taraqqiyot, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati, moliyaviy nazorat, moliyaviy tekshirish, tahlil qilish va baholash, jamoat organlari, boshqarish, rejalashtirish, optimallashtirish, prognozlash, davlat budjeti*.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish jamiyat iqtisodiy hayotida moliyaviy resurslarni boshqarishning zaruriy elementi hisoblanadi, chunki bunday boshqaruv jamiyat oldidagi o‘ta muhim bo‘lgan mas’uliyatni keltirib chiqaradi. Moliyaviy nazorat - bu shunchaki maqsad bo‘lib qolmasdan, balki u jamiyat iqtisodiy hayotini tartibga solishda uning ajralmas qismidir, uning maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash choralarini ko‘rish, ayrim hollarda tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilish va choralar ko‘rish hamda yetkazilgan zararlarni qoplash yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yohud kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun - qoidalarining buzilishlarini, moddiy resurslarning samaradorligi va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir.

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat svilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolyutsion taraqqiyot va inqilobiy to‘fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o‘zgarib boradi.

Nazorat - jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘inidir. Shu bilan birga u ko‘plab rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining subyektiv ijod sohasidir.

Published: 28.03.2024

Cite this article: Tuychiyev Abdurahmon G‘ofurovich, O’ktamxonova Robiyaxon Fahriddinxon qizi (2024). Jamiyat iqtisodiy hayotida moliyaviy nazorat va uni tashkil qilishning mohiyati. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317029

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Moliyaviy nazoratning nazariy asoslari deganda - butun nazorat tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning yo‘nalishi davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, tarmoqlar iqtisodiyotidagi barcha soha va bo‘g‘inlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va samarali foydalanishga qaratilgan bo‘ladi. Bozor munosabatlari rivojlangan taqdirda ham moliyaviy nazoratning salohiyati pasaymasdan, balki oshib boradi.

Moliyaviy nazorat - moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish ko‘rinishida namoyon bo‘lib, u moliyaviy nazoratning mazmuni va yo‘nalishini belgilab beradi. Shunday bo‘lsada, moliyaviy nazoratning mazmuni va yo‘nalishi jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining o‘zgarishidan kelib chiqqan holda o‘zgarib turadi. Masalan, korxonalarning xo‘jalik yuritish huquqlarining kengayishi, ularning moliyaviy faoliyatini olib borishdagi mustaqilligi, tadbirkorlikning rang-barang ko‘rinishdagi mulk shakllarining vujudga kelishi moliyaviy nazoratning mazmunini boyitishga olib keladi.

Moliyaviy nazorat bu maxsus shakl va uslublarni qo‘llash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig‘indisidir.

Moliyaviy nazorat - bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar harakatini va muomalasini majmui bo‘lib, xo‘jalik subyektlari faoliyatini va boshqarishni o‘ziga xos usullar va shakllar yordamida tashkil etish.

Moliyaviy nazorat tizimi subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o‘z ichiga oladi. Ular nazorat obyektining holatini, ijroning kutilgan natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash, tuzatish kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar yo‘sinini ishlab chiqish uchun yaxlit uyg‘unlikda hamkorlik qiladi.

Moliyaviy nazoratning vazifasi yo‘l qo‘yiladigan chetga chiqish me’yorlarini malakali belgilashdan iborat, qolgan barcha chetga chiqishlarni qayd etish va bartaraf qilish talab qilinadi. Boshqaruvning ichki va tashqi xo‘jalik jarayonlarini kuzatish, tekshirishni amalga oshirar ekan, nazorat bozor iqtisodiyotida, bu harakatlarning hammasi faqat samarali boshqarish uchun foydali bo‘lgandagina mavjudlik huquqiga egadir.

Moliyaviy nazorat xuquqiy asoslari deganda, nazorat vazifalari yuklatilgan davlat va jamoat organlarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy samaradorligini holis baholash maqsadi bilan bu faoliyat ustidan nazoratning ko‘p tomonlama tarmoqlardagi tizimini, xo‘jalik va maqsadga muvofiqligini aniqlashni hamda davlat budjeti daromadlarining rezervlarini aniqlashni tushunmoq kerak.

Keltirib o‘tilgan ta’riflar tahlili nazoratning eng muhim jihati – og‘ishlarni qayd qilish va baholash xulosalaridan iboratligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu, fikrimizcha, nazoratning ahamiyati va mohiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

–qonun nuqtai nazaridan nazorat qilinayotgan obyektning ruxsat etilgan holati va kutilgan daraja va xatti-harakati yo‘l qo‘yiladigan daraja bilan qiyoslanadi;

–harakatlar, xarajatlar, natijalar, standartlar, rejalashtirilayotgan yoki zarur ma’lumotlar bilan qiyoslanadi;

–qo‘llangan va huquqiy cheklashlar bilan amalga oshirilgan harakatlar qiyoslanadi;

–kutilayotgan va haqiqiylari oqilona va maqsadga muvofiqlari bilan qiyoslanadi;

–boshqa qiyoslashlar ham amalga oshiriladi.

Nazoratning mohiyati va nazorat qiluvchi shaxsning ish usuli shundan iborat. O‘tkazilgan qiyoslashlardan ish manfaatiga xizmat qiladigan va hatto aybdorlarni jazolash uchun baholash xulosalari chiqarish nazoratni boshqarishning boshqa vazifalaridan farqlaydigan maqsadi shu.

Shunday qilib, moliyaviy nazorat - davlat tomonidan tashkil etishni nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat budjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik tamoyillaridan chetga o‘tish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi. Nazorat maqsadi - tuzatish choralarini ko‘rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va bularning oldini olishdan iborat.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, moliyaviy nazorat deganda tashkilotning moliyaviy faoliyatini ularning belgilangan maqsad va vazifalariga muvofiqligini ta'minlash uchun monitoring qilish va boshqarish jarayoni tushuniladi. U moliyaviy operatsiyalar, xarajatlar, daromadlar va byudjetlarni kuzatish va tartibga solish uchun siyosat, tartib va tizimlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy nazoratning maqsadi aktivlarni himoya qilish, firibgarlik va o‘zlashtirishning oldini olish, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish hamda qarorlar qabul qilish uchun to‘g‘ri va ishonchli moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Bodi Z., Merton R. Finansы. Uchebnik. Per. s angl. -M.: “Vilyams”, 2007. - 347 s.*
2. *Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 920 b.*
3. *Malikov T.S. Moliya: nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Nur Durdonalari”, 2021. – 296 s.*
4. *Malikov T. Moliya: amaliy jihatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Nihol-print”, 2022. -428 b.*

5. *Axunova Ye. Finansы. Uchebnik. Chast I. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -320 s.*
6. *https://genderi.org/2-mavzu-moliyavij-nazoratni-tashkil-etishning-nazarij-va-huuij.html.*
7. *https://english-life.uz/moliyaviy-nazoratni-tashkil-etishning-nazariy-va-huquqiy-asoslari-2/.*
8. *https://azkurs.org/mavzu-moliyaviy-nazoratni-tashkil-etishning-nazariy-va-xuquqiy.html*

BYUDJETDAN TASHQARI FONDLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNING IJTIMIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Tuychiyev Abdurahmon G‘ofurovich
i.f.f.d., dotsent,
Sattoraliev Tolibjon Jahongir o‘g‘li,
TDIU, Andijon fakulteti, BHA ta’lim yo‘nalishi
71/22 guruhi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezis davlat maqsadli jamg'armalarining mohiyatini o'rganish, ularning maqsadi va davlat resurslarini samarali boshqarishga ta'sirini tushunishga qaratilgan. Davlat maqsadli jamg'armalari - bu kelajak avlodlar manfaati uchun muayyan aktivlarni yoki daromad manbalarini saqlash va boshqarish uchun hukumatlar tomonidan tashkil etilgan moliyaviy vositalar.*

Tayanch so`zlar: maqsadli jamg‘armalar, moliyaviy aktivlar, davlat *daromadlari, moliya mexanizmi, investitsiya, moliyalashtirish, sanoat infrastruktura, boshqaruv, davlat maqsadli jamg‘armalari, chora-tadbirlar, davlat byudjeti, davlat aktivlarini boshqarish, investitsiya qilish, aro‘dshtsh ijtiomiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy foliyat.*

Davlat maqsadli jamg‘armalari qat’iy maqsadli xususiyatga ega bo‘lib, davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi moliyaviy mablag’lari yig’indisi hisoblanadi. Ular alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo’g’ini hisoblanadi. Bu jamg’armalarni moliyaviy mablag’larining shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli foydalanishi bevosita moliyaviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg’armalari ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ko’ra, muayyan bir aholi qatlami yoki investitsion dastur ehtiyojlarini nazarda tutib, mamlakatda yaratilayotgan milliy daromadni qayta taqsimlash orqali tashkil etiladi. Davlat umumjamiyat ahamiyatiga molik bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni o’z vaqtida va to’liq amalga oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarda